

ulkan bunyodkorliklar bo'layotganini e'tirof etgan holda, Sayid Mohiro'yi jahon majmuasi ham ta'mirlanishini, adabiy turizm maskanlaridan biriga aylantirilishini istagan bo'lar edik. Yana ana shu majmua bilan bir ko'chada mashhur shoir, ma'rifatparvar Avaz O'tar uy-muzeyi ham joylashgan. Bu uy-muzey, qayta rekonstruksiya qilinsa, u yerga ko'plab eksponatlar qo'yilsa, muzeyda shoir she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar yangrab tursa, Avazning ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlari ifodali o'qilgan holda tashrif buyuruvchilarga taqdim etilsa, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ham bu uy-muzeyning ahamiyati ortgan bo'lar edi.

Xorazmdagi adabiy turizm manzilgohlari ro'yxatiga O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjon tomonidan asos solingan "Yoshlik" bog'ini ham kiritish lozim. Bog'da shoir nomi bilan ataluvchi muzey ham tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Zero shoir qoldirgan boy adabiy meros shunga munosibdir.

Biz poytaxtimizdagi "Adiblar xiyoboni"ga borib, u yerdan ma'naviy quvvat olamiz. Ana shunday xiyobonni Urganch shahrida ham bunyod etilishini, bu majmua turizm maskaniga aylantirilishini ham mutasaddilarga taklif sifatida bergan bo'lar edik.

Xullasa: Keyingi yillarda turizmni rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina Xiva shahriga turistlar oqimi keskin oshdi. Biz turizmning turli tarmoqlari qatori adabiy turizmni ham jadal rivojlantirishimiz zarur. Adabiy turizm nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy jihatdan ham ulkan sarmoyadir. Zero ma'naviy taraqqiyot iqtisodiy yuksalishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 173-bet.
2. Abdullayev H. Mumtoz xorazmiylar muxtasar bitiklarda. Toshkent, 2011. 8-bet.
3. Abulg'oziy. Shajarayi turk// Ahmedov B. Abulg'ozixon va uning "Shajarayi turk" asari haqida ikki og'iz so'z. Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992. 3-bet.
4. Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul. Feruz - shoh va shoir qismati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 112-bet.
5. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.

NOMODDIY MADANIY MEROS

VA BAXSHICHILIK SAN'ATI

Jabbor Eshonqul,

filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori

Anotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz hududidagi moddiy va nomoddiy meros, ularning bugungi kundagi ahamiyati va milliy qadriyatlarning xalq o'zligini, asriy an'analarini ulug'lashdagi o'rni xususida so'z boradi. Shuningdek, madaniy meros, an'ana va va ijrochilik xususida ham fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Baxshichilik san'ati, unung millat va elatlardagi nomlanish farqlari to'g'risida ayrim mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, baxshichilik, an'ana, folklor, epik ijod mahsuli, badiiy obidalar, xalq dostonlari.

Kirish: So'nggi yillarda mamlakatimizda Nomoddiy madaniy merosga juda katta e'tibor berilmoqda. Qabul qilinayotgan qarorlar, farmonlar milliy madaniyat, folklor san'ati, nomoddiy madaniy merosni asrab avaylashga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi tarixiy qarorida ham bu merosni asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish borasida qator vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Nomoddiy madaniy merosi – o'zlikni namoyon etishning og'zaki shakl va an'analari, ijro san'ati; urf odat, marosim, bayramlar, tabiat va koinot haqidagi bilim va ko'nikmalar, hunarmandchilik san'ati kabi katta beshta guruhga bo'lanadi.

Yuneskoning Nomoddiy-madaniy meros repzintativ ro'yxatiga kiritilgan baxshichilik san'ati esa ana shu dastlabki guruhning eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Zero, epik ijod har bir xalqning badiiy tarixidir. Shunday ekan, turkiy xalqlari tarixi, madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlari borasida tasavvurga ega bo'lish uchun, eng avvalo, ushbu xalqlarning epik san'ati va an'analari haqida fikr yuritish lozim bo'ladi. Zero, epik san'at davomchilari, ya'ni uning ijrochilari bo'lmish baxshilar millat tarixi, san'ati, madaniyatini ming yillar davomida asrab-avaylab kelayotgan, avlodlardan-avlodga yetkazayotgan, milliy madaniyat, tarix va falsafaga o'zining benazir ulushini qo'shib kelayotgan ulkan ijodkorlardir. Turkiy xalqlarning «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li», «Dada Qo'rqut» kabi ulkan badiiy obidalar ham bizga ana shunday epik ijodkorlardan meros bo'lib qolgan. Baxshi o'z epik xotirasida ana shu qadim an'analarni saqlab, uni avlodlarga yetkazib kelgan va har gal ijro etilganda bu epik an'ana yanada boyib, yangilanib borgan. Ular epik bilim va epik xotiraning merosxo'rlari, asrovchilari edilar. Ajdodlardan meros qolgan bu epik xotirani ular o'z quvvai hofizasiga ko'ra ijro etganlar. Ijroni esa ular, shubhasiz, o'z ustozlaridan o'rganganlar, epik qoliplarga amal qilganlar, shu taxlit ular epos qonuniyatini yaratganlar.

Shuning uchun ham turkiy xalq madaniyatida xalq og'zaki namunalari ijro etuvchi ijodkorlar – baxshilar alohida o'rin tutadi. Badiiy so'z san'atining eng yuksak ko'rinishi bo'lgan epik ijodkorlikda biz noestetik hodisalarning estetik hodisaga aylanish jarayonini kuzatamiz. Bu jarayon, shubhasiz, xalqimizning qadim tarixi, mifologik tafakkuri, ko'p asrlik milliy madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda rivoj topgan.

Asosiy qism: Ma'lumki, epik ijodkorlar deganda biz Baxshi (ozan, oqin, jirov, soqi, sozchi, yuzboshi, sannovchi va hakozi)larni, [1,150] Xalfalar (yakka xalfalar, kollektiv xalfalar)ni, qissaxonlarni, maddohlarni, ertakchilarni tushunamiz. Bu ijodkorlarga xos bo'lgan umumiy jihat ijodkorlik bo'lsada, epik asarlarning avlodlardan-avlodga saqlanib qolishida, baxshilar alohida o'rin tutadi. O'z navbatida baxshilar ham ma'lum bir hududning lokal xususiyatlari (Misol uchun O'zbekistonda a) Janubiy hudud -Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqandi, Jizzax, Sirdaryo; b) Markaziy hudud - Toshkent viloyati va vodi; v) Xorazm) hamda ijro asboblari (1. Dumbira. 2. Qo'biz. 3. Dutor (tor, g'ijjak, balomon) , Ijro uslubi (1. Ichki ovozda kuylovchi baxshilar; 2. Tashqi ovozda kuylovchi baxshilar) Ijro imkoniyati va poetik mahorati (1. Ijodkor baxshilar; 2. Ijrochi baxshilar)ga ko'ra farqliklarga ega. Epik ijodkor haqida so'z yuritayotganda, ana shu jihatlarni e'tiborda tutmoq lozim bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday epik asar birinchi navbatda:

a) baxshichilik san'ati – jonli ijro jarayoni, faqatgina og'zaki ijro etilishi va shu taxlit meros qoldirilishi;

b) ko'plab versiya va variantlarga egaligi;

v) an'anaviy formulalarning yuksak namoyishi;

g) an'analarga rioya etganligi bilan ajaralib turadi.

Aslida bu mezonlar biri ikkinichisini talab etadi, biri ikkinichisiz sodir bo'lmaydi. Shuning uchun ham epik an'ana jarayoni ushbu xususiyatlarning barchasini yaxlitlikda olib qarash va o'rganishni talab etadi.

Insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan bo'lgan so'z sa'nati tarixi juda qadimiy bo'lib, uning ilk ildizlari yuqorida ta'kidlaganimizdek, jahon xalqlarining folklori tarixi, ya'ni so'z sa'nati tarixida noestetik hodisalarning estetik hodisalarga aylanishi masalasi bilan bog'liqdir.

So'z sa'natining ilk noestetik ildizlarini esa biz jahonning barcha xalqlari folklori tarixida ko'ramiz. [2,31] Xalqning mifololik tafakkurdan poetik idrok qilishga o'tishi va uning samarasi bo'lgan bugungi ma'nodagi folklor merosi shunchalar murakkabki, uning ayrim namunalari hozirgacha ibtidoiy jamoa tuzumi va undan keyingi ilk madaniy bosqichlarning izlaridan to

zamonaviy maishiy turmush hamda qarashlarning qayta-qayta poetik mushohada qilingan badiiy ifodalarigacha ko'rishimiz mumkin.

Og'zaki so'z san'atida eng kichik maqol janridan, to eng yirik epik janrlarigacha mansub asarlarning tarixi, badiiyati, badiiy-estetik ahamiyati, eng avvalo, uning ijodkori xalq va uning yetuk vakillari, jumladan, uning yuksak ifodasi bo'lgan professional xalq baxshilarining faoliyati bilan bog'liq.

Baxshi so'zining: terma va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san'atkor, ustod, ruhoni, kohin, ma'rifatchi, yo'lboshchi, jarroh, kotib kabi ko'plab ma'nolari mavjud. Badiiy ijoddagi epik ijodkor obrazida esa, yuqoridagi ko'pgina xususiyatlar qorishiq holda keladi. Bu esa ushbu san'atkorlar haqidagi tasavvurlar tizimi o'zining qadim ildizlariga ega ekanidan dalolat beradi.

Boshqa turkiy xalqlarda baxshilarni janrdan kelib chiqib nomlash ham mavjud. Qozoqlarda jырchi (jырdan), olonxochi (Olonxodan), uligerchi (Uligerdan), manaschi (Manasdan). Qadimgi Gretsiyada ham Aedlar bilan Rapsadlarni ajratishgan. Aedlar shoir bo'lishgan, rapsadlar esa ijrochi. Xuddi mana shuning o'ziyoq har bir ijrochi o'zi bir olam ekanligi, o'z uslubi, o'z ohangi, o'z ta'bi, o'z mahoratiga ega ekanligini, ularga umumiy bir nuqtai nazardan baho berib bo'lmasligini, ular alohida-alohida o'rganilishga, tadqiq etilishga muhtoj ekanligini ko'rsatadi.

Tarixiy folkloriy jarayonda epik ijodkorlarning kohin, shomon, baxshi, ijrochi tiplari mavjud bo'lib, ular haqidagi tasavvurlar xalq rivoyat va afsonalarida, dostonlar esa epik matn qatida yaxshi saqlanib qolgan.

Shomon va baxshi tushunchalari bir-biriga bog'liq tushunchalar ekanligidan Qo'rqut ota haqidagi ko'plab afsonalar guvohlik beradi. Urug'boshi, yo'lboshchi va shuning bilan bir vaqtda epik madaniyat vakili Qo'rqut ota misolida shomonning qay taxlit davrlar o'tishi bilan baxshi – ijrochiga evrilishini yaqqol ko'rish mumkin. Epik ijodning turlicha, yani lingivistik, psixologik, falsafiy va badiiy, miflogik talqinlari bizni bir narsaga baxshi va shomon aslida bir sinkritik obrazning turli davrlardagi turlicha ko'rinishi ekanligini kursatishiga hech shubha yo'q. Zamonlar o'tgan sayin shomon va baxshi vazifalari asta-sekin bir-biridan farqlana borgan.

Eposni anglashdagi bunday evrilishlar xalqning tarixi, qahramonlik o'tmishi va ma'naviyatining sarchashmasi bo'lgan epik ongning taraqqiy etishida muhim rol uynagan. Eposdagi miflogik-magik jihatlar asta so'na borib, shomon, tabib va baxshi funksiyalari bir-biridan tabora farqlana borgan. Endi baxshi shomon funksiyasidan ko'ra el donishmandi, yurt maslahatchisi, epik an'analar davomchisi sifatida namoyon bo'la borgan. Epik qatlam ongidagi bunday evrilishlarni anglasakgina nima uchun epik an'ana ba'zi joylarda tezda unutilib, ba'zi joylarda hozirgi kunga qadar saqlanib kelinayotganligining sababini tushunib yetamiz.

Baxshichilik san'atining yuzaga kelishi, mifologik asoslari, tarqalish geografiyasi va har bir hududning lokal xususiyatlari tadqiqi bu san'atni dunyo folkloridagi mavjud boshqa epik asarlar bilan tarixiy-qiyosiy ko'lamda o'rganishni talab etadi. Har bir davr, ma'lum janrlar qamrovida hamda yurtimizdagi mashhur epik san'atkorlar ijodi misolida ushbu mavzuni keng planda tadqiq etish O'rta Osiyo xalqlari tarixi, epik san'atining dunyo madaniyatidagi o'rni va ahamiyatini belgilab berishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Arxaik eposning eng nodir namunasi hisoblangan «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li», «Qoblendi botir», «Edege» kabi eposlar haqida so'z ketar ekan, epik formula haqida, to'g'rirog'i, og'zaki epik ijodiyotga xos bo'lgan qonuniyatlar haqida so'z yuritish lozim bo'ladi.

Epik formula bu eposning yadrosidir. Biz epik formulaning nima ekanligini tushunmay biror bir doston mohiyatini tushunib yetolmaymiz. Og'zaki ijod deganda, biz eng avvala, ana shu epik formula asos bo'lgan ijodga aytamiz. Yozma adabiyotning o'z qonuniyatlari mavjud. U ana shu qonuniyatlarga asoslanib rivoj topadi. Og'zaki ijodning esa qonuniyati bitta bu epik formulaga asoslanganlik. Bu ijodning og'zakiligini, an'anaviyligini ta'minlaydi. Epik formula bu eposning qurilmasi, suyagidir.

Ijodkor, baxshi o'z «uyi»ni, ya'ni doston kuylar ekan u ana shu «suyak»ka, asosga suyanadi. Shunga asoslanib u o'z dostonini kuylaydi. Epik formula bu tayyor qolip. Baxshi o'z dostonini ana shu epik qolipga moslaydi. Biroq bu degani baxshi faqat takrorlaydi, ya'ni hech bir yangilik yaratmaydi degani emas. Har bir baxshi epik formulaga o'zicha yondoshadi, bu ijodiy yondoshish uning navotorligini, nechog'li iqtidorli ekanini namoyish etadi. Epik formulalar qonuniyatini bilmasdan turib, eposning yuzaga kelish va yashab qolishi qonuniyatni ham bilish mumkin emas.

A.Lord: «Xalq og'zaki ijodi ijro uchun yaratilmaydi, balki ijro etilayotganda yaratiladi», deydi. Baxshi kuylayotganda epos yana bir marta yangilanadi, yangicha mazmun, yangicha ohang, yangicha mohiyat kasb etadi. Epik formula ma'lum bir tizim, ma'lum bir qurilmaga ega. Epik formula deganda biror bir fikrni ifodalash uchun ma'lum bir shaklda, ya'ni sheriy shaklda takror va takror uchraydigan so'zlar tizimi, quyma satrlar nazarda tutiladi. Bu xuddi tirik organizm, ya'ni tananing suyagiga o'xshaydi. Suyak tuzulishi hammada bir xil. Biroq, eti, og'irligi, rangi va eng muhimi dunyoqarash, tushuncha va ruhiyati hammada har xil bo'ladi. Xuddi shunday epik ijodda har bir ijodkor epik formulaga tayanib o'z «tana»sini yaratadi.

Og'zaki ijod, ya'ni epik an'ana – doston ijrosiga xos bo'lgan xususiyat esa mutloqa boshqa. Bu baxshining aynan ijro paytidagi holatidir. Zero og'zaki ijod mana shunday ijro payti yaraladi, yuzaga keladi. Bu og'zaki ijod qonuniyatidir.

Eposdagi mana shu epik formulalar bir-biriga tutashgandagina u ma'lum bir ko'rinish, ya'ni doston ko'rinishini oladi. Epik formula qotib qolgan, o'zgaras tizim emas. U o'zgaruvchan, har gal yangilanib turuvchi formuladir. Baxshi bu shunchaki ijrochi emas, u an'anaviylikka asoslanib, o'z san'atini yaratayotgan tom ma'nodagi ijodkordir. Formulalarning rang-barangligi epik mavzularning rang-barangligidan kelib chiqadi. Baxshi ijrochiga nisbatan, baxshi shoirlarning tajribalari ham katta, kuylayotgan mavzulari chegaralari ham keng, shunga yarasha epik formulalarni qo'llash salohiyati ham o'zgacha bo'ladi. Bir baxshi repertuaridagi epik formulalar boshqa baxshilarda ham uchrasada, ijroda u aynan bir xil bo'lmaydi.

Baxshining epik an'anaga amal qilib, o'z formulasini yaratishi bu baxshining iqtidoriga va mahoratiga bog'liq. Baxshichilik san'ati ijroga, og'zakilikka asoslangan san'atdir. Har gal ijroda bu san'at yana va yana yangilanib boraveradi.

Og'zakilik deganda bu asarning, yoxud biror bir dostonning og'zaki ijro etilishi emas. Biror bir shoir yozgan dostonni ham og'zaki ijro etish mumkin. Yoxud biror bir yozma adabiyot na'munasini og'zaki ijro etsa bo'ladi. Biroq bu og'zakilik degani emas. Ya'ni A. Lord aytgandek gap faqat ijroda emas, balki eposning og'zaki ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishidadir.

Baxshi shu paytgacha ko'p bor takrorlanganidek «savodsiz» kishi emas. Aksincha, tilning go'zal tovlanishlarini nozik ilg'ay olgan, epik bilim va epik tafakkur salohiyatiga ega iqtidorli san'atkordir.

Epik formulalarning yuzaga kelish jarayoni bevosita til qonuniyati bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib epik formulalarni uch guruhga: 1. Ma'lum bir xalq baxshilariga xos bo'lgan epik formula. 2. Biror bir maktab, yoxud uning bir necha vakillarga xos bo'lgan epik formula. 3. Individual epik formulalarga ajratish mumkin. Bu epik formulalarda asosan: qahramonning ta'rifi; biror bir harakat yoki holat; biror bir makon yoxud epik vaqt bayon etilganini ko'ramiz. Xuddi mana shunday formulalar tizimi zanjir hosil qilib, she'riy satrlarni yaxlit doston holatiga olib keladi. Epik formula bu baxshi xotirasidagi qo'yma misralarning tayyor zahirasi emas, balki ana shu quyma misralarning har gal, ya'ni har galgi ijroda yangicha mazmun va ohang bilan takror va takror jaranglashidir.

Ustoz shogirdchilik an'analarga rioya etgan baxshilarning turli auditoriyalardagi ijrolari, marosim, to'ylarda yoxud boshqa davralardagi ijrolari jonli ijroni tashkil etadi.

Baxshining mahorati oshib borgani sari, uning repertuari hai boyib, tinglovchilari hai ko'payib borgan. Baxshi bir dostonni bir necha kunlab, hatto oylab ijro etganlar.

Baxshining katta davralarga kirib kelishi bilan uning «o'rganish» jarayoni tugab qolmagan. U har gal yangi-yangi davralarda o'z mahoratini oshirib borgan. Ustozlardan, boshqa shoirlardan o'rganishni davom ettirgan. Boshqa maktab vakillarining ham repertuarini, ijro

usulini o'rganishga harakat qilishgan. Shu taxlit u o'z repertuarini turli variant va versiyalar hisobiga boyitib borgan.

Epos og'izdan og'izga o'tib kelayotgan jarayon. U mana shu jarayonda yuzaga keladi. U mana shu jarayonda yaratiladi va har gal yangicha mazmun, yangicha mohiyat kasb etib, yangilanib boraveradi.

Yangi yuz yilliklar oldida eng katta muammo bu baxshichilik san'ati, ya'ni epik an'ana saqlanib qoladimi degan masaladir. Bu masalaga ham olimlar turlicha munosabat bildirishgan. Ba'zilar baxshilarni asrash kerak, ularning shogirdlarini ko'paytirish kerak deydi, ba'zilar baxshilarni endi omma qabul qilolmayotganini aytishadi. Biroq, menimcha, bu jarayon epik tafakkur bilan bog'liq.

Eposshunos olimlar bir muhim muaommoni o'rta tashlaydi. Eposning nashr etilishi jarayoni bilan uning so'nish jarayoni ham boshlanadi deydi. Endi uni ijro etuvchilar ko'payishi mumkin, biroq ular yaratuvchi bo'lolmaydilar. Eng muhimi esa og'zaki ijoddagi epik qolip, epik formulaga amal qilmaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar ijrochilarning yozma manbalar tufayli repertuarlari boyishiga misollar keltiradilar. Biroq bu og'zaki ijro jarayonining so'nishi demakdir.

E'tiborli joyi shundaki, turkiy xalqlar, jumladan o'zbek baxshilaridan yuzlab dostonlar yozib olingan. Yangi yuz yillik ostonasida esa ularning to'la, mukammal nashrlari yuzaga kelayapti. Bu nashrlar va ular ustida olib boriladigan tadqiqotlar ertangi kun o'z samarasini berishi shubhasizdir. Bu qadim san'at adabiyotimizning, san'atimizning, ma'naviyatimizning beshigi, tafakkurimizdagi uyg'unlikning ostonasidir. Ehtimol, kelgusi yuz yillikda baxshichilik san'ati saqlanib qolmas. Biroq xalq og'zaki ijodiga, shu paytga qadar yaratilgan uning nodir na'munlariga bo'lgan e'tibor hyech qachon kamaymaydi. Bu san'at yaratgan ramzlar, poetik obrazlar endi yozma adababiyotga, yozuvchilarimizning nasriga, shoirlarimizning she'rlariga, rassomlarimizning suratlariga, tarixchilarimizning tarixiy asralariga faylasuflarimizning falsafiy traktitlariga, adabiyotshunoslarimizning adabiy qarashlariga ko'chib o'tadi. Shu taxlit u o'zining ikkinchi umrini yashaydi va qayta yangilanish jarayonini davom ettiradi.

Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, bugungi globallashgan bir jamiyatda, dunyoning ko'pgina xalqlarida epik an'ana tamoman so'nib bo'lgan va yoxud so'nib borayotgan bir holatda, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda haligacha baxshi, jirov, oqin, xalfachilik san'a'atining saqlanib qolayotganligi muhim ahamiyatga molik hodisadir. Mustaqillikka erishilgandan keyin milliy-ma'naviy merosga bo'lgan e'tibor tamomila yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi. Bu borada respublikada olib borilayotgan ishlar dunyo, jumladan, Sharq xalqlari uchun har tomonlama ibrat bo'lsa arzigulik darajadadir.

Xulosa: qilib aytganda, turkiy xalqlarning epik an'anlari tadqiqi mazkur san'atning bugunga qadar yashab kelishi omillari, har bir epik maktabining o'ziga xos ijro yo'li, usuli, ular tomonidan yaratilgan asarlarning mifologik qatlami va badiiyati haqida to'laqonli tasavvur beradi. Baxshilar kuylagan doston namunalari o'tgan asrlarda ijro etilgan doston namunalari hamda dunyo xalqlarining eng sara epik ijodi bilan o'zaro qiyoslansa, xalq ijodi janrlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda badiiy so'z san'atining yuzaga kelishi va taraqqiyot tamoyillarini ham belgilab beradi. Bugungi kunda dunyo folklorshunosligida dolzarb hisoblangan ilmiy-nazariy masalalarning yechimiga ham oydinlik kiritadi hamda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li», «Qoblandi botir» kabi dostonlarimiz dunyo adabiyotida yaratilgan so'z san'atining eng noyob hodisasi deb hisoblanayotgan «Gilgamish», «Odessiya», «Mahabhorat» kabi durdona asarlar bilan bir qatorda turadigan epik ijod namunasi sifatida dunyo madaniyatida o'z o'rni va ahamiyatiga ega ekanini ham urg'ulaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жирмунский В.М. Зарипов Х. Узбекский народной героической эпос. – М.:1947.С.23-58;
2. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари. –Тошкент: Фан, 1979. – Б.150.

3. Жирмунский В. М. Легенда о призвании певца // Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – С. 397-407;
4. Гринцер П.А. Дренеиндейский эпос.–М.:1974. – С.15-31
5. Алпомиш.Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли.Нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. –Тошкент: Фан, 1999.– 827 б
6. Гўрўғлининг тўғилиши. Айтувчи Муҳаммад Жомрот ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: Малик Муродов. –Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. –328 б.
7. Гомер.Одессия. Перевод с древнегреческого В.Жуковського.–М.: Правда, 1985. –320 с.
8. Гринцер. Эпос древнего мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира.–М.: Наука, 1971.–С.134–205.
9. Дьяконов И.М. Эпос о Гильгамеше // Эпос о «Гильгамеш.–М.: Наука, 1961. – С.91.143.
10. Лорд Альберт. Сказитель. –М.: Восточная литература, 1994. –368 с.
11. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари. –Тошкент: Фан, 1979.–152 бет.
12. Reihl, Karl. Singing The Past: Turkic and Medieval Heroic Poetry. –Ithaca–London: Cornell University Press, 2000.
13. Reihl, Karl. Uzbek Epic Poetry: Tradition and Poetic Diction // Traditions of Heroic and Epic Poetry. Vol. II, Ed. by J. B. –Hainsworth, London, 1980-1989.–S. 94-120.
14. Саидов М. Ўзбек дostonларида бадиий маҳорат.–Тошкент: Фан, 1969. –264 б.
15. Ekici, Metin. Türk dünyasında Köroğlu.–Ankara: Akçag, 2004.–368 s.

ADABIY TURIZM – ABADIY TURIZM MEZONI

Maqsud Asadov,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya:Ushbu maqolada turizm turlari, adabiy turizmning ahamiyati, uni yuzaga keltirgan vositalar xususida fikrlar bildirilgan. Markaziy Osiyoda yagona sanalgan Folklor arxivi va undagi 3000 ga yaqin birlikdagi nomoddiy-madaniy meros namunalari, xalq og'zaki ijodi durdonalari, jumladan, baxshilar bisotidan yozib olingan dostonlar, umuman, adabiy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladigan nomoddiy meroslarimiz haqidagi aniq fikrlar keltirib o'tilgan. Alisher Navoiy siymosi va u zot sharafiga qo'yilgan haykallarning turizm sohasiga ta'siri masalasiga ham to'xtalib o'tilgan. Adabiy turizmni rivojlantirish borasida qator taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, folklor, nomoddiy meros, madaniy meros, baxshi, festival, tadqiqot, haykal va haykaltaroshlik, muzahhib, byust, mahorat.

Kirish: Bugun O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashuv jarayoni har qachongidan-da kuchayib, turli xalqlar, millatlar va davlatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari yanada mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayonda, shubhasiz, turizmning birlashtiruvchi, o'zaro do'stlik, birodarlik ruhini kamol toptiruvchi beqiyos jihatini aslo unutmaslik lozim. Asrlar davomida shakllanib, dunyo tamadduni tarixida muhim o'rin egallagan ma'naviy qadriyatlar, geografik joylar, go'zal va so'lim go'shalarga intilish, ularni jonli tarzda ko'rish ishtiyoqi insoniyat uchun aslo begona emas. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida safar xususida shunday yozadi: "Safar mahjur (yiroq, ayrilgan – M.A.)larini matlub (maqsad, murod. – M.A.)ig'a yetkaruvchi va mahrumlarini murod uyig'a kivurguvchi va xomlarni pishirguvchi va taomlarni singurguvchi. Olam g'aroyibidin bahra yetkurguvchi va ofarinish (yaratish, vujudga kelish – M.A.) g'aroyib (ajoyib, hayron bo'ladigan – M.A.)ig'a ittilo (xabardorlik, ogohlik. – M.A.) berguvchi"... Demak, safar yoki turizm inson kamoloti, ya'ni uning ham jismoniy, ham ma'nan barkamolligiga xizmat qilishi tabiiy.